

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT
MARKAZI**

AMONOV BAROT MURODOVICH

**“SAHIH AL-BUXORIY”GA HANAFIY MAZHABI ASOSIDA YOZILGAN
SHARHLAR TAHLILI (“UMDAT AL-QORIY” ASARI MISOLIDA)**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Historical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по историческим наукам**

Amonov Barot Murodovich

“Sahih al-Buxoriy”ga hanafiy mazhabi asosida yozilgan sharhlar tahlili (“Umdat al-qoriy” asari misolida) 3

Amonov Barot Murodovich

Analysis of the commentaries of the hanafi madhab on “Sahih al-Bukhari” (on the example of “Umdat al-qari”)21

Амонов Барот Муродович

Анализ комментариев “Сахих аль-Бухари” написанных, на основе ханафитского мазхаба (на примере “Умдат аль-кари”).....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ43

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT
MARKAZI**

AMONOV BAROT MURODOVICH

**“SAHIH AL-BUXORIY”GA HANAFIY MAZHABI ASOSIDA YOZILGAN
SHARHLAR TAHLILI (“UMDAT AL-QORIY” ASARI MISOLIDA)**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Isl54 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iiu.uz) va “ZiyoNET” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ziyodov Shovosil Yunusovich
tarix fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Muminov Ashirbek Kurbanovich
tarix fanlar doktori, professor

Eshonjonov Baxtiyor Ilhomovich
tarix fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “___” avgust soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 244-00-56), Faks: (99871) 244-00-65, e-mail: info@iiu.uz. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (134-raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi, 11- uy. Tel.: (99871) 244-00-56; faks: (99871) 244-00-65; e-mail: info@iiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” iyulda tarqatildi.
(2023-yil 18 iyuldagi 7-raqamli reestr bayonnomasi.)

D.R.Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

S.A.Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.M.Islomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda Imom Buxoriyning islom olamida Qur'oni karim (القران الكريم) dan keyingi o'rinda turuvchi "Sahih al-Buxoriy" (صحيح البخارى) to'plami orqali dinning asl mohiyatini tushunish hamda mavjud diniy-ijtimoiy muammolarga yechim topishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Manbaga turli davrlarda musulmon ulamolar ko'plab sharhlar yozgan bo'lib, Badruddin Ayniyning (vaf. 855/1451) "Umdat al-qoriy" (عمدة القاري) asari ular orasida alohida ahamiyatga ega. Ushbu sharh "Sahih al-Buxoriy"dagi hadislarning isnod yo'li, so'zlarning lug'at, jummalarning grammatik tahlili bilan birgalikda, ahli sunna val jamoa (أهل السنة والجماعة) fihiy mazhablari qarashlarini asoslashdagi o'rni ham ko'rsatilib, hanafiy mazhabi usulul hadis (أصول الحديث) qoidalariga muvofiq sharhlangani bilan ajralib turadi.

Dunyoda islomshunoslikka ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot muassasalarida Badruddin Ayniyning "Umdat al-qoriy" (عمدة القاري) asari borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Sharq musulmon mamlakatlaridagi "al-Azhar" islom tadqiqotlari akademiyasi, IRCICA (Islom hamkorlik tashkiloti huzuridagi Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq etish tashkiloti), ICESCO (Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti), Sunna va nabaviy merosni o'rganish markazi, Malayziya Islomni anglash instituti kabi ilmiy-tadqiqot muassasalarida ushbu asar qiyosiy manbashunoslik, matnshunoslik va lingvistik yondashuv asosida o'rganilayotgan bo'lsa, G'arbdagi Oksford islom tadqiqotlari markazi, Kembrij Markaziy Osiyo Forumi, Leipzig universiteti va Leibniz sharqshunoslik markazida lingvistik va matnshunoslik yondashuvi asosida o'rganilmoqda.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar natijasida hadisshunoslikka oid tadqiqotlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu imkoniyatlar natijasi o'laroq, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi va Hadis ilmi oliy maktabi tashkil etilib, hadis ilmiga oid bir qancha asarlar tadqiq va tarjima qilindi. Markaziy Osiyo mintaqasida hanafiy mazhabi (المذهب الحنفى) ning keng tarqalgani e'tiboridan Badruddin Ayniyning "Umdat al-qoriy" (عمدة القاري) asarini tadqiq qilish orqali "Sahih al-Buxoriy" (صحيح البخارى) da rivoyat qilingan hadislarning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy hayotga ta'siri va axloqiy-ma'naviy jihatlarini tahlil qilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 27-martdagi PQ-2855-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-896-son "Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. “Sahih al-Buxoriy”ga yozilgan sharhlar va “Umdat al-qoriy” bo‘yicha olib borilgan izlanishlar mintaqa jihatidan Sharq, G‘arb va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlar asosida uch guruhga bo‘lib o‘rganildi.

Sharqda Muhammad ibn Zaynil Obidin, Muhammad ibn Ja‘far Kattoniy, Muhammad Isom Husaniy, Ali Hasan Halabiy, Muhammad Mavlaviy, Muhammad Abu Shahob, Jum‘a Fathi Abduhalim, Abdusattor Shayx, Erdinch Ahatli, Marva Kochkun, Asrar Ahmadxan kabi olimlar “Sahih al-Buxoriy”ga yozilgan sharhlar qatorida, “Umdat al-qoriy” haqida umumiy ma’lumotlar berib o‘tganlar¹. Mahmud Hasan Channar, Aziz Rahim Sayfiy va Baxtiyor Bana kabi tadqiqotchilar hanafiy olimlar tasnif etgan sharhlar to‘g‘risida bibliografik ma’lumotlarni taqdim etganlar².

Muhammad ibn Abduqodir, Musa Salim Abu Jildan, Izzat Ibrohim, Munir Muhammad Daham, Ibn Yusuf Shatih, Hind Mahmud kabi olimlar – “Umdat al-qoriy” asarini tilshunoslik, Solih Yusuf Ma‘tuq, Muhammad Sha‘bon Alvan, Nahla Hasan Salim, Samira Ibrohim Hamadan, Hasan Xattof kabi olimlar – hadisshunoslik va manbashunoslik jihatidan o‘rganganlar³. Abdurahmon Busayriy, Jadurrobb Amin Abdulmajid, Muhammad ibn Zaynil Obidin, Robi’ Shamlan, Husayn Akyuz va Yavuz Ko‘ktash, A.Ilyosbekov, A.Jamashev kabi – olimlar hadis manbalariga qiyoslab tadqiqot olib borganlar⁴.

¹ Muhammad ibn Zaynil Obidin. al-Jame‘ as-sahih lil Imam al-Buxariy va inayat al-ummat al-islamiya bi sharqan va g‘arban. – Bayrut: Dar al-bashair al-islamiya, 2013. – B. 577.; Abu Abdulloh Muhammad ibn Ja‘far Kattoniy. ar-Risalat al-mustatrafah li bayan mashhur kutub as-sunnat al-musharrafah. Tahqiq: Abu Ya‘lo Bayzoviy Mag‘ribiy. at-Ta‘liqot al-mustatrafah alar-risalat al-mustatrafah. – Lubnan, 2011. – B. 36-55.; Muhammad Isom Husaniy. Ithaf al-qoriy bi ma‘rifati juhud va a‘mal al-ulama ala Sahih al-Buxoriy. – Damashq: Yamama, 1987. – B. 48-200.; Ali Hasan Halabiy. al-Hitta fi zikr as-sihah as-sitta. – Bayrut: Dar al-Jayl. – B. 321.; Abdusattor Shayx. al-Imam al-Buxariy. – Damashq: Dar al-qalam, 2007. – B. 528; Асрар Ахмадхан. Достоверность хадисов: переосмысление критериев. Международный институт Исламской Мысли. – Баку: Идрак, 2017.

² Mahmood al-Hasan Channar, Azuz ur-Rehman Saiffee, Bakhtiyar Bano. “Academic contributions of Ahnaf on Saheeh of Imam Bukhari”- جهود الحنفية حول الجامع الصحيح للإمام البخاري تصنيفا وتأليفا // “Habiba Islamicus” The international Journal of arabic and islamic research. Publisher: Habibia Research Academy, Habibia Islamic Institute, Karachi (Pakistan). 2018. Volume 2, Issue 1. – P. 55.

³ Muhammad ibn Abduqodir. al-Istish‘had an-anahviy bi aqval as-sahaba inda al-imam Badruddin Ayniy fi dav‘i kitabihi Umdat al-qoriy./Amdurman Islom universiteti jurnali. – Xartum, 2016. – №8. – B. 33.; Izzat Ibrohim. Dalalat al-siyah fi jumlat al-e‘tiroziya indal Ayniy fi kitabihi Umdat al-qoriy. /Takrit universiteti. Adaab al-faraidiy jurnali. – Bag‘dod, 2016. №24. – B. 21.; Munir Muhammad Daham. Min asaliyb ijaz fil-hadis an-nabaviy, dirasa fi kitab Umdat al-qoriy. /Takrit universiteti. Adaab al-faraidiy jurnali. – Bag‘dod, 2012. – №20. – B. 21.; Ibn Yusuf Shatih. Ma‘alim minhaj al-lug‘aviy fi sharh al-hadis an-nabaviy indal-Imam Ayniy. – Jazoir: Qosidiy universiteti, 2014. – B. 90-94.; Solih Yusuf Ma‘tuq. Badruddin Ayniy va asaruhu fi ilm al-hadis. – Amman: Dar al-bashair al-islamiyya. 1987.; Muhammad Sha‘bon Alvan. al-Ayniy va manhajuh al-balag‘iy fi kitabihi Umdat al-qoriy. – G‘azza: 2001. – 68 b.

⁴ Abdurahmon Busayriy. Muftakarot al-laiy va ad-durar fi al-muhakamati bayn al-Ayniy va ibn Hajar. – Makka: Maktabat ar-rushd, 2005.; Jadurrobb Amin Abdulmajid. Bayn al-imamayn al-Ayniy va ibn Hajar dirasati muqorana limanhajayhima fi sharh Sahih al-Buxariy. – Qohira, 2007.; Muhammad ibn Zaynil Obidin. Al-Jame‘ as-sahih lil Imam al-Buxariy va inayat al-ummat al-islamiya bi sharqan va g‘arban. – Bayrut: Dar al-bashair al-islamiya, 2013. –

Xorijiy tadqiqotchilardan: Karl Brokkelman, Fuad Sezgin, Joel Blecher, Jonatan Brovn, Skot Lukas, Issam Eido, Stefaniye Brinkman, Kamil Samigullin, Sayaxov Ruslan kabi tadqiqotchilar “Sahih al-Buxoriy”ga yozilgan sharhlar qatorida “Umdat al-qoriy” haqida umumiy ma’lumotlar bergan⁵.

Mahalliy tadqiqotchilardan: B.Eshonjonov, U.Alimov, D.Rahimdjano, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, D.Muratov, M.Alimova, Sh.Umarov, N.To‘rayev, A.Inoyatov Movarounnahrda hadis ilmi tarixi va muhaddis ulamolar ilmiy merosini tadqiq etgan⁶. U.Uvatov esa, “Sahih al-Buxoriy”ga yozilgan 80 dan ortiq sharhlar haqida umumiy ma’lumot berib o‘tgan⁷. So‘nggi yillarda bir guruh olimlar “Sahih al-Buxoriy”ni o‘zbek tilida sharhlab, unda “Sahih al-Buxoriy”ga yozilgan sharhlar qatorida hanafiy olimlar yozgan asarlari soni yuzdan ziyod ekani ta’kidlangan. “Sahih al-Buxoriy”ning hanafiy sharhi va moturidiylik aqidasiiga uyg‘un nashriga katta ehtiyoj borligi nuqtai nazardan hanafiy olim Shayx Muhammad Taqiy Usmoniyning “Sahih al-Buxoriy”ga yozgan “In‘om al-Boriy” (شرح صحيح البخارى) sharhi asosida “Sahih al-Buxoriy sharhi” (شرح صحيح البخارى) nomli kitob o‘zbek tilida 2022-yilda chop etilgan⁸.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2012-

B. 577; Erdinç Ahatli. Ayni’nin “Umdetü’l-Kâri”de hanefilerin amel etmediği hadisleri yorumlama yöntemi (kitâbü’s-salât örneği). Sakariya universiteti. Turkiya. 2017.№31.B.49.; Yavuz Köktaş, Fethu’l-Bari ve Umderü’l Kari’nin Metin Tahlili Açısından İncelenmesi. Doktora Tezi. – Istanbul, 1999. (S. 277).; Ilesbekov A., Jamashev A. Bædrudin æl-Ayni men ibn Xajar æl-Asqalanidin “Saxix æl-Buxari” jinag‘yna jazg‘an tysindirme yeñbekterinin salıstıymalı taldauları. / Yasauı universitetinin xabarshıysı. 2021. - № 4 (122). – S. 219-229.

⁵ Karl Brokkelman. Tarix al-adab al-arabiy. / Abdulhalim Najjor, Sayyid Ya‘qub Bakr va Ramazon Abduvavoblar Arab tiliga tarjima qilgan. – Qohira: Dor al-ma‘orif, 1959. – J. 3. – B.178.; Fuad Sezgin. Tarix at-turos al-arabiy // Mahmud Fahmiy Hijoziy arab tiliga tarjiması. 20 jildli. – ar-Riyod: Jami‘at al-imam Muhammad ibn Saud al-islamiya, 1991. – J. 1. – B. 249.; Joel Blecher. Hadith Commentary in the Presence of Students, Patrons, and Rivals: Ibn Hajar and Şahih al-Bukhārī in Mamluk Cairo. Oriens 41, no. 3-4 (2013): – P. 261-287.; Jonathan A. C. Brown. Hadith: Muhammad’s Legacy in the Medieval and Modern World. - Oxford: Oneworld Publication, 2009. Pp. xii+308.; Scott C. Lucas. The Legal Principles of Muhammad B. Ismā‘il Al-Bukhārī and Their Relationship to Classical Salafi Islam. Islamic Law and Society. Brill. Vol. 13, No. 3 (2006), pp. 289-324 (36 pages).; Issam Eido. Mohammed Tayssir Safi. Şahih al-Bukhārī’s Criteria: An Epistemological Perspective. 2020, Ibn Haldun University Press. Pp. 93-142; Issam Eido. Hanafi’s Criteria of Hadith Criticism: the Role of Islamic Legal Maxims المعيار الحنفى 2020. لندت الحديث: دور أصول الشريعة ومفهوم الكلي والجزئي. مجلة كلية العلوم الإسلامية جامعة السلطان محمد الفاتح الوقفية. Pp.40.; Stefanie Brinkmann. Beer in Early Islam: A Hadith Perspective, in: The Arabist. Budapest Studies in Arabic No. 36 (2015), pp. 3-34.; Blecher, Joel / Brinkmann, Stefanie / Zaherinezhad, Ali (eds.): Hadith Commentary: Continuity and Change, – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2021.

⁶ Eshonjonov B.I. IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom al-Buxoriyning mavqei va uning “al-Jome’ as-sahih” asaridagi fiqhiy masalalar: Tarix fan. nomz. dis. ... avtoref. – T.: TIU, 2001.; Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand (Samarqand ulamolari xotirasiga doir qand(dek shirin kitob) / Arabchadan qisqartirib tarjima qiluvchilar: Usmonxon Temurxon o‘g‘li va Baxtiyor Nabixon o‘g‘li. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.; Rahimdjano D.A. Abu Hafs Nasafiyning “Kitob al-qand fi ma’rifati ulamoi Samarqand” asari – Samarqandda hadis ilmi tarixi bo‘yicha muhim manba: Tar. fan. nom. ... dis. avtoref. – T.: TIU, 2003.; Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. – T.: Hilol-Nashr, 2006.; Movarounnahr allomalarning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissaları / Usmonov I. tahriri ostida mualliflar jamoasi. – B. 183-285.; Muratov D.M. Abudlloh As-Subazmuniyning “Kashf al-osor” asari hadis ilmiga oid manba. Tar. fan. nom. ... diss. – T.: TIU, 2008.; Alimova M.F. Imom Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi. Tar. fan. nom. ... diss. – T.: TIU, 2019.; Umarov. Sh.X. Abdulhamid Keshiy ilmiy merosining VIII-IX asrlar Movarounnahr hadis ilmi rivojidagi o‘rni. Tar. fan. nom. ... diss. – T.: Oz‘XIA, 2019.; To‘rayev. N.N. Imom Buxoriyning “at-Tarix al-kabir” asari – hadis ilmiga oid muhim manba. Tar. fan. nom. ... diss. – T.: Oz‘XIA, 2020.

⁷ Uvatov U. IX asr Movarounnahr va Xuroson hadisshunosligi tarixidan (al-Buxoriy, Muslim, at-Termiziy). Tar. fan. dokt. ... diss. – T.: TIU, 2001.

⁸ Abiyev H., Aminov H., Ismoilov M., Abdullayev B. Sahihi Buxoriy sharhi. – T.: Hilol-Nashr, 2022. - 414 b.

2014-yillarga mo'ljallangan A-1-051 – “Islomshunoslik muammolarini birlamchi manbalar va ajdodlarimiz diniy-ma'rifiy merosini tizimli tahlil qilish asosida yosh avlodda sog'lom e'tiqodni shakllantirish” mavzuidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hanafiy ulamolarining “Sahih al-Buxoriy”ga yozgan sharhlarini “Umdat al-qoriy” asari misolida ochib berish.

Tadqiqotning vazifalari:

“Sahih al-Buxoriy”ga yozilgan sharhlar, xususan, “Umdat al-qoriy” borasida Sharq va G'arb davlatlari hamda mahalliy olimlarning tadqiqot usullarini aniqlash, ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish;

XIV-XV asrlarda Misrda Mamluk sultonlarining shar'iy ilmlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasini yoritish hamda hadis, fiqh ilmlarining rivojini o'rganish;

“Sahih al-Buxoriy”ning hanafiylik asosidagi sharhlarini aniqlash, movarounnahrlilik shorihlarning asarlarini tasniflash;

Badruddin Ayniyning hayoti va ilmiy merosi, uning hadis ilmi rivojidadagi o'rnini yoritish;

olim asarlaridagi to'rt mazhabga oid dalillarni keltirish uslubini o'rganish va qarashlarining hanafiylik asoslari takomilidagi rolini ochib berish;

Badruddin Ayniy va Ibn Hajar kabi zamondosh olimlar o'rtasidagi munosabatlarning davr ilmiy muhitiga ta'sirini tahlil etish;

“Umdat al-qoriy” qo'lyozmalarini aniqlash va asarning manbashunoslik tahlilini amalga oshirish;

Badruddin Ayniyning hadislarni sharhlashdagi fiqhiy, usuliy, grammatik, mantiqiy yondashuvlari va hanafiy asoslarni yoritish uslubini ko'rsatish;

“Umdat al-qoriy”dagi ahkom hadislarning to'rt mazhab asoslariga ko'ra sharhlanishi va fiqhiy masalalarning hanafiy mazhabi an'alariga muvofiq dalillanishini ochib berish hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: “Sahih al-Buxoriy”ning sharhi – “Umdat al-qoriy” asari.

Tadqiqotning predmetini Badruddin Ayniyning “Umdat al-qoriy”dagi hanafiy mazhabiga doir qarashlari tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tarixiylik, tizimlilik, ilmiy tavsiflash, analiz, sintez va qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Badruddin Ayniyning “Sahih al-Buxoriy” (صحيح البخاري)ga yozgan sharhi “Umdat al-qoriy” (عمدة القارى)ning ishonchlilik darajasi, uning Imom Buxoriyga shogirdligi, Muhammad ibn Yusuf Firabriydan uch yo'l (Abu Haysam Kashmihiniy, Abu Muhammad Saraxsiy, Abu Ali ibn Shibavayh) va har bir yo'lda sakkiz nafar uzluksiz va ishonchli shayxlar sanadi mavjudligi orqali isbotlangan;

XIV asr Misrda Mamluk sultoni Ashraf Sha'bon davrida Imom Buxoriy merosiga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi natijasida “al-Jome' as-sahih” (الجامع الصحيح)ni o'rganish amaliyoti keng tatbiq etilib, Qohiradagi sulton qarorgohi va markaziy masjidlarda ramazon oyida Qur'on xatmi singari “Sahih al-Buxoriy” (صحيح البخاري)ni xatm qilish an'anasi joriy etilgani aniqlangan;

Badruddin Ayniy “al-Jome’ as-sahih” (الجامع الصحيح)ni o‘qitishda alohida uslub va maktabga asos solganligi uning hanafiylik mazhabidagi “Ayniy madrasasi” (مدرسة العيني)ni tashkil etib, unda hadislarni yodlash, sharhlash va qiyosiy tahlil qilish metodini joriy etgani misolida ochib berilgan;

Badruddin Ayniy “Umdat al-qoriy” (عمدة القارى) asaridagi hadislarning hukmiy ma’nolarini batafsil yoritish maqsadida, yigirmata mezon: “hadislarning mavzuga bog‘liqligi” (بيان تعلق الحديث بالترجمة), “hadis roviylari bayoni” (بيان رجاله), “hadis turlari bayoni” (بيان نوع الحديث), “savol-javob” (الأسئلة و الأجوبة), “hadisdan fiqhiy hukm olish” (استنباط الأحكام الفقهية) va “hadisdan olingan foyda” (فائدة) asosida fiqh, grammatika, tilshunoslik, manbashunoslik jihatidan hanafiy an’anasida sharhlaganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Sahih al-Buxoriy”ga yozilgan sharhlar 250 dan ortiq bo‘lib, shundan hanafiy mazhabi doirasida 112 ta sharh, movarounnahrlik ulamolardan Abulhasan Ali Pazdaviyning (vaf. 482/1089) “Sharh al-Jome’ as-sahih lil Buxoriy”, Umar Nasafiyning (vaf. 537/1142) “an-Najah fi sharh kitab axbar as-sihah”, Mahmud Buxoriy Husayriyning (vaf. 636/1239) “Najmul hadis sariy ila hall alfaz Sahih al-Buxoriy”, Ahmad ibn Muhammad Farg‘oniyning (vaf. 834/1431) “Muxtasar sharh al-Buxoriy lil-Kirmoniy” asari kabi yettita sharh yozilgani aniqlangan;

Badruddin Ayniyning hadis, fiqh, tafsirga oid jami 72 ta asar ta’lif etgani, tabaqot, bibliografik kitoblardagi qaydlar va ma’lumotlarning qiyosiy tahlili natijasida ulardan 8 tasi movarounnahrlik allomalarning asarlariga sharh ekanligi yoritib berilgan;

“Umdat al-qoriy” XIV-XV asrlarda yuzaga kelgan diniy-ijtimoiy masalalarga bag‘ishlab yozilgani, muallif kengroq sharhlash maqsadida turli kitoblarga murojaat qilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri matnni keltirish orqali jami 129 ta manbadan, Movarounnahr ulamolarining qalamiga mansub tafsir, Qur’on va hadis ilmi, ilmi rijal va tarojum, fiqh va usulga oid 14 ta asardan foydalangani ko‘rsatilgan;

XIV-XV asrda Misr Mamluk Sultoni Ashraf Sha’bon va Muayyad Shayx Mahmudiy Qohiradagi qarorgohi “Jabal qal’a”da ramazon oyida har kuni “Sahih al-Buxoriy” kitobini o‘qish, qozilar, shayxlar ilk ilm majlisida ishtirok etib, darslarni tabarrukan boshlab berishlariga qaror chiqargani, ushbu davrda “Sahih al-Buxoriy”ga 17 ta sharh tasnif etilgani va “Fath al-Boriy” (فتح البارى) shofeiyy va “Umdat al-qoriy” (عمدة القارى) hanafiy mazhabida sharhlanganligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi “Umdat al-qoriy” asarining Buyuk Britaniyadagi Dublin shahri Chester Biti kutubxonasi qo‘lyozmalar fondida №3297 hamda Turkiyadagi Fayzulloh Afandi kutubxonasi fondida №408 inventar raqamlari ostida saqlanayotgan nusxalar bilan qiyoslagan holda amalga oshirilgani, OAK tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan mahalliy va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalar, xalqaro va mahalliy konferentsiyalarda keng muhokama qilingan ma’ruzalar, tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi tahliliy mulohazalar, nazariy xulosa va takliflardan hadis ilmi va tarixiga oid masalalarni o'rganishga oid ilmiy izlanishlar, "Sahih al-Buxoriy" sharhlari va ularning qiyosiy tadqiqi singari masalalarga bag'ishlangan istiqbolli ilmiy tadqiqotlarga ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan oliy va o'rta maxsus diniy bilim yurtlaridagi hadisshunoslik, manbashunoslik kabi fanlar mazmunini yangi nazariy ishlanmalar bilan boyitish, darslik va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish, sohaga oid fakultativ darslar, seminar mashg'ulotlari va "Sahih al-Buxoriyga yozilgan asarlar tahlili "Umdat al-qoriy"ning manbashunoslik tadqiqi" kabi maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Sahih al-Buxoriy"ga hanafiy mazhabi asosida yozilgan sharhlar tahlili ("Umdat al-qoriy" misolida) bo'yicha olib borilgan tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

Badruddin Ayniyning "Sahih al-Buxoriy" (صحيح البخاري)ga yozgan sharhi "عمدة القارى" (Umdat al-qoriy)ning ishonchlilik darajasi uning Imom Buxoriyga shogirdligi Muhammad ibn Yusuf Firabriydan uch yo'l (Abu Haysam Kashmihiniy, Abu Muhammad Saraxsiy, Abu Ali ibn Shibavayh) va har bir yo'lda sakkiz nafar uzluksiz va ishonchli shayxlar sanadi mavjudligi xususidagi ilmiy xulosalardan Din ishlari bo'yicha qo'mitaning buyurtmasi asosida tayyorlangan "Sulosiyotul Buxoriy" kitobida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2022-yil 8-oktyabrdagi 02-03/7718-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur ma'lumotlar o'quvchi va talabalarda hadis ilmining rivojlanishiga oid tushuncha va tasavvurlarining shakllanishiga xizmat qilgan;

XIV asrda Misrda Mamluk sultoni Ashraf Sha'bon davrida Imom Buxoriy merosiga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi natijasida "al-Jome' as-sahih" (الجامع الصحيح)ni o'rganish amaliyoti keng tatbiq etilib, Qohiradagi sulton qarorgohi va markaziy masjidlarda ramazon oyida Qur'on xatmi singari "Sahih al-Buxoriy" (صحيح البخاري)ni xatm qilish an'anasi joriy etilgani to'g'risidagi ilmiy xulosalari 2018-yil 5-iyundagi 3178-son xulosasi asosida tayyorlangan "Imom Buxoriy muhaddislar sultoni" kitobi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining 2022-yil 13-oktyabrdagi №760-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur ma'lumotlar orqali buyuk ajdodlar ilmiy-ma'naviy merosining asl mazmun-mohiyati keng jamoatchilikka yetkazilgan;

Badruddin Ayniy "al-Jome' as-sahih" (الجامع الصحيح)ni o'qitishda alohida uslub va maktabga asos solganligi uning hanafiylikka asoslangan "Ayniy madrasasi" (مدرسة العيني)ni tashkil etib, unda hadislarni yodlash, sharhlash va qiyosiy tahlil qilish metodini joriy etgani misolida ochib berilgani to'g'risidagi ilmiy xulosalardan buyurtma asosida tayyorlangan "Islom tarixi" (Ummaviy xalifalar davri) o'quv qo'llanmasida foydalanilgan (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2022-yil 13-oktyabrdagi №01-07/155-son ma'lumotnomasi). Natijada, hadis amaliyotiga doir masalalar mohiyati kengroq ochib berilib,

noto'g'ri talqin etuvchi toifalarga raddiya berishda asosli manba bo'lib xizmat qilgan;

Badruddin Ayniy "Umdat al-qoriy" (عمدة القارى) asaridagi hadislarning hukmiy ma'nolarini batafsil yoritish maqsadida, yigirmata mezon "hadislarning mavzuga bog'liqligi" (بيان تعلق الحديث بالترجمة), "hadis roviylari bayoni" (بيان رجاله), "hadis turlari bayoni" (بيان نوع الحديث), "savol-javob" (الأسئلة و الأجوبة), "hadisdan fiqhiy hukm olish" (استنباط الأحكام الفقهية) va "hadisdan olingan foyda" (فائدة) asosida fiqh, grammatika, tilshunoslik, manbashunoslik jihatidan hanafiylik an'anasiga muvofiq sharhlaganligi xususidagi ilmiy xulosalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Xalq mulki" va "Mavzu" turkum ko'rsatuvlarining senariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 22-avgustdagi №02-31 1677-son ma'lumotnomasi). Natijada, aholining hadis borasidagi bilimlarining yanada boyishiga, muhaddis allomalar hayoti va faoliyatiga doir keng bilimlarning shakllanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 2 tasi risola, Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan, 1 ta maqola xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyasining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish (dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasa ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Sahih al-Buxoriy**"ga hanafiy sharhlarining metodologik asoslari" deb nomlangan birinchi bobida "Sahih al-Buxoriy"ga hanafiy mazhabi asosida yozilgan sharhlarni tadqiq etishning nazariy asoslari, XIV-XV asrlarda Misrda hadis va fiqh ilmlarining rivojlanishi, hanafiy mazhabi asosida yozilgan sharhlar tasnifi yoritib berilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining "*Sahih al-Buxoriy*" sharhlarini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari" nomli birinchi paragrafida Movarounnahrda hadis ilmining paydo bo'lishi va rivojlanishi, Imom Buxoriy kabi mashhur muhaddislarning hayoti va ma'naviy merosini keng tadqiq etish yuzasidan Sharq, G'arb va Markaziy Osiyoda, shu bilan birga, musulmon olamida amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar tahlil qilingan. Sharq, G'arb va mahalliy olimlarning ilmiy

izlanishlari natijalariga ko'ra, "Sahih al-Buxoriy" asariga ikki yuz ellikdan ortiq sharh va izohlar yozilgan bo'lib, ularni tadqiq etish borasida olib borilgan tadqiqotlar uslubi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

"Sahih al-Buxoriy"ning sharhlaridan biri "Umdat al-qoriy" ham alohida taqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lib, sharqlik Muhammad ibn Abduqodir, Musa Salim Abu Jildan, Izzat Ibrohim, Munir Muhammad Daham, Ibn Yusuf Shatih, Hind Mahmud kabi olimlar – "Umdat al-qoriy" asarini tilshunoslik, Solih Yusuf Ma'tuq, Muhammad Sha'bon Alvan, Nahla Hasan Salim, Samira Ibrohim Hamadan, Hasan Xattof kabi olimlar – hadisshunoslik va manbashunoslik jihatidan o'rgananganlar. Abdurahmon Busayriy, Jadurrobb Amin Abdulmajid, Muhammad ibn Zaynil Obidin, Robi' Shamlan, Husayn Akyuz va Yavuz Ko'ktash, A.Ilyosbekov, A.Jamashev kabi – olimlar hadis manbalariga qiyoslab tadqiqot olib borganlar⁹.

G'arblik va boshqa xorijiy tadqiqotchilardan: Karl Brokkelman, Fuad Sezgin, Joel Blecher, Jonatan Brovn, Skot Lukas, Issam Eido, Stefaniye Brinkman, Kamil Samigullin, Sayaxov Ruslan kabi olimlar "Sahih al-Buxoriy"ga yozilgan sharhlar qatorida "Umdat al-qoriy"ni ham lingvistik va matnshunoslik yondashuvi asosida o'rganilganlar¹⁰.

Mahalliy tadqiqotchilardan B.Eshonjonov, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, N.To'rayev, A.Inoyatovlar Imom Buxoriyning qalamiga mansub asarlar buyicha tadqiqotlar olib borishgan. U.Uvatov esa, "Sahih al-Buxoriy"ga yozilgan 80 dan ortiq sharhlar haqida umumiy ma'lumot berib o'tgan¹¹. Shuningdek, bir guruh olimlar "Sahih al-Buxoriy"ni o'zbek tilida sharhlab, unda "Sahih al-Buxoriy"ga yozilgan sharhlar qatorida hanafiy olimlar yozgan asarlari soni yuzdan ziyod ekani ta'kidlangan. Mazkur "Sahih Buxoriy sharhi" nomli kitob hanafiy olim Shayx Muhammad Taqiy Usmoniyning "Sahih al-Buxoriy"ga yozgan "In'om al-Boriy" sharhi asosida 2022-yilda chop etilgan¹².

Tadqiqot davomida "Umdat al-qoriy" asarini o'rganishga oid izlanishlarda tarixiy-qiyyosiy, tarixiy-tizimlilik, retrospektiv, tarixiy davrlashtirish kabi metodlarni qo'llash yetakchilik qilgani ochib berildi.

⁹ Izzat Ibrohim. Dalalat al-siyaq fi jumlat al-e'tiroziya indal Ayniy fi kitabihi Umdat al-qoriy. /Takrit universiteti. Adaab al-faraidiy jurnali. – Bag'dod, 2016. №24. – B. 21.; Jadurrobb Amin Abdulmajid. Bayn al-imamayn al-Ayniy va ibn Hajar dirasati muqorana limanhajayhima fi sharh Sahih al-Buxariy. – Qohira, 2007.; Erdinç Ahatli. Ayni'nin "Umdetü'l-Kâri"de hanefilerin amel etmediği hadisleri yorumlama yöntemi (kitâbü's-salât örneği). Sakariya universiteti. Turkiya. 2017.№31.B.49.; Ilesbekov A., Jamashev A. Bədrüddin əl-Ayni men ibn Xajar əl-Asqalanidın "Saxix əl-Buxari" jınag'yma jazg'an tısındırme uębkekerinıń salıstırmaalı taldauları. / Yasauı universitetinıń xabarshısı. 2021. - № 4 (122). – S. 219-229.; Yavuz Köktaş, Fethu'l-Bari ve Umderü'l Kari'nin Metin Tahlili Açısından İncelenmesi. Doktora Tezi. – İstanbul, 1999. (S. 277).;

¹⁰ Karl Brokkelman. Tarix al-adab al-arabiy. / Abdulhalim Najjor, Sayyid Ya'qub Bakr va Ramazon Abduvavoblar Arab tiliga tarjima qilgan. – Qohira: Dor al-ma'orif, 1959. – J. 3. – B.178.; Fuad Sezgin. Tarix at-turos al-arabiy // Mahmud Fahmiy Hijoziy arab tiliga tarjiması. 20 jildli. – ar-Riyod: Jami'at al-imam Muhammad ibn Saud al-islamiya, 1991. – J. 1. – B. 249.; Joel Blecher. Hadith Commentary in the Presence of Students, Patrons, and Rivals: Ibn Hajar and Şahih al-Bukhārī in Mamluk Cairo. Oriens 41, no. 3-4 (2013): – P. 261-287.; Jonathan A. C. Brown. Hadith: Muhammad's Legacy in the Medieval and Modern World. - Oxford: Oneworld Publication, 2009. Pp. xii+308.; Scott C. Lucas. The Legal Principles of Muhammad B. Ismā'īl Al-Bukhārī and Their Relationship to Classical Salafī Islam. Islamic Law and Society. Brill. Vol. 13, No. 3 (2006), pp. 289-324 (36 pages).;

¹¹ Uvatov U. IX asr Movarounnahr va Xuroson hadisshunosligi tarixidan (al-Buxoriy, Muslim, at-Termiziy). Tar. fan. dokt. ... diss. – T.: TIU, 2001.

¹² Abiyev H., Aminov H., Ismoilov M., Abdullayev B. Sahih Buxoriy sharhi. – T.: Hilol-Nashr, 2022. - 414 b.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “*XIV-XV asrlarda Misrda hadis va fiqh ilmlarining rivojlanishi*” deb nomlanib, unda XIV-XV asrlarda Misrdagi ilmiy-ma’naviy muhit, hadis va fiqh ilmlarining rivojlanishi tahlil qilingan. Mamluklar davrida Sultonlar shar’iy ilmlar va ulamolarga nisbatan ehtirom ko’rsatganlar. Misrdagi aholining tasavvuf va sufiylarga munosabati ijobiy bo’lib, mahalliy aholi va hatto mamluk sultonlar, amirlari ham sufiylarga ergashganlar. Mamluklar arab tiliga nisbatan turkiy tilda yaxshiroq muloqot qilgani bois, mahalliy asli arab amaldorlari ham turkiy tilni o’rganishi zarur bo’lgan. Aksar mamluklar faoliyatida arab tili tarjimonlariga ehtiyoj sezilgan. Shu sababli, arab tilidagi ayrim kitoblar turkchaga va turk tilidagi kitoblar arabchaga tarjima qilingan.

XIV-XV asr Burjiy mamluklar davri tarixi yoritilgan asarlarda mamluklarning harbiy salohiyati qanchalik yuqori va kuchli bo’lgan bo’lsa, diniy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy sohalarida ham undan-da ko’proq salohiyatga ega bo’lganliklari aytilgan. Z.Aripova ta’kidlaganidek: “Burjiy mamluk sultonlari ilmfan, islom san’ati va madaniyati hamda mamlakat ijtimoiy-madaniy hayotining gullab-yashnashiga katta hissa qo’shdilar. Zero, shu davrda Qohiraning birgina o’zida bir yuz ellikdan ortiq masjid va madrasa qurilgani buning yaqqol dalilidir¹³.”

Sultonlar tomonidan shar’iy ilmlar qatorida hadis va fiqh ilmi rivojiga alohida e’tibor berilib, mazkur yo’nalishlarda kuchli bilimga ega bo’lgan olim va shayxlar madrasalarda mudarris sifatida tayinlanganlar. Natijada, ushbu davrda ko’zga ko’ringan Badruddin Ayniy, Ibn Hajar Asqaloniy, Imom Saxoviy, Oisha bint Ibrohim, Asmo bint Kamol kabi erkak va ayol muhaddis va faqih olimlar yetishib chiqdi va hadis ilmida ko’plab asarlar hamda hadis to’plamlariga sharhlar bitildi. Tadqiqot davomida bu davrda “Sahih al-Buxoriy”ga 17 ta sharh va izohlar yozilgani aniqlandi.¹⁴

“*Sahih al-Buxoriy*”ning hanafiylik asosidagi sharhlari tasnifi” deb nomlangan uchinchi paragrafida hanafiya mazhabida yozilgan sharhlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida, “Sahih al-Buxoriy”ga yozilgan umumiy sharhlar 250 dan ortiq bo’lib, “Sahih al-Buxoriy”ga “Sharh Sahih al-Buxoriy” nomi bilan 75 ta va boshqa nom bilan atalgan 93 ta sharh aniqlangan. Bundan tashqari, 22 ta ta’liqot, 26 ta hoshiya, 13 ta so’zlar izohlangan sharh, 17 ta qiyin matnlarni tushuntiradigan risola, 19 ta bob nomlariga bag’ishlangan kitob, 19 ta “Sahih al-Buxoriy” muxtasari va 35 ta “Sahih al-Buxoriy” sharhlarining muxtasar kitoblari aniqlandi.

“Al-Jome’ as-sahih”ga yozilgan hanafiy sharhlar va ularning mualliflari to’g’risidagi muxtasar ma’lumotlar ular yashagan (vafot etgan) davriga qarab quyidagi tartibda o’rganildi: XIV asrgacha, ya’ni “Umdat al-qoriy” asari muallifi Badruddin Ayniygacha yozilgan sharhlar – 7 ta; XIV-XV asrlar – muallif yashagan davrida yozilgan sharhlar – 17 ta; XV-XX asrlar – uning vafotidan keyin yozilgan

¹³ Aripova. 3.D. Misrning XIII-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotida Abbosiy xalifalarning o’rni. Tar. fan. dok. ...dissert. – T.: O’XIA, 2021. – B. 123.

¹⁴ Joel Blecher. Hadith Commentary in the Presence of Students, Patrons, and Rivals: Ibn Hajar and Şahīḥ al-Bukhārī in Mamluk Cairo. *Oriens* 41, no. 3-4 (2013): 261-287.; Joel Blecher. Revision in the Manuscript Age: New Evidence of Early Versions of Ibn Hajar’s *Fath al-Bārī*./ *Journal of Near Eastern Studies* 76, no. 1 (April 2017): 39-51.; Joel Blecher. Scholars, Spice Traders, and Sultans: Arguing over the Alms-Tax in the Mamluk Era./ *Islamic Law and Society* 27 (2020): – P. 53-82.

sharhlar – 88 ta. Tadqiqot davomida “Sahih al-Buxoriy”ga hanafiy mazhabi asosida jami 112 sharh yozilgani aniqlandi. Shulardan, 100 tasi arab, 7 tasi urdu, 5 tasi fors tilida yozilgani ma’lum bo’ldi. Bu asarlarning 96 tasi sharh, 10 tasi hoshiya va 6 tasi ta’liq asar ekanligi aniqlandi. “Sahih al-Buxoriy”ga hanafiy mazhabi asosida tasnif etilgan asarlar sirasida movarounnahrlik muhaddis ulamolar qalamiga mansub bo’lgan 7 ta hanafiy sharhlar mavjudligi aniqlandi. Bu asarlar turli davrlarda hanafiy mazhabi asosida movarounnahrlik muhaddis ulamolar sharhlagani bilan katta ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Umdat al-qoriy” muallifi Badruddin Ayniyning islom ilmlari rivojida tutgan o’rni**” deb nomlangan bo’lib, muhaddisning hadis ilmi va hanafiy fiqhiga oid asarlari o’rganilgan hamda olim fiqhiy qarashlarining hanafiylik asoslari takomilidagi roli, uning Ibn Hajar Asqaloniy, Taqiyiddin Maqriziy kabi zamondoshlari bilan o’zaro munosabatlari, faoliyatlarining ilmiy muhitga ta’siri tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning *“Badruddin Ayniyning ma’naviy merosi va hadis ilmiga oid asarlari tahlili”* nomli birinchi paragrafida allomaning hayoti, faoliyati hamda ilmiy merosi, shuningdek, hadis ilmi yo’nalishida tasnif etilgan asarlari tahlil etilgan. Badruddin Ayniy qozi va mudarris bo’lishiga qaramay, o’z faoliyati davomida turli mavzularda kitoblar yozgan. Manbalarda u 19 yoshidayoq *“Malah al-alvah”* (Yorqin qaydnoma) nomli sharh yozgani qayd etilgan. Ayniy turli yo’nalishlarda jami 72 ta asar ta’lif etgan. Masalan, Qur’on va tafsir ilmlariga oid - 3 ta, sunnat va hadis ilmida - 9 ta, fiqh va usulda - 13 ta, siyrat, tarix va tarojumda - 18 ta, tilshunoslik va adabiyot sohasida - 19 ta, va’z, xutba va ruqiyaga oid - 6 ta va shu bilan birga, islom ilmlariga bag’ishlangan asarlarga 4 ta taqriz yozgan. Bu esa Badruddin Ayniy serqirra olim bo’lganiga dalolat qiladi.

Bugungi kunda Ayniy asarlaridan 17 tasi tadqiqotchilar tomonidan o’rganilib nashr etilgan, 12 tasi esa qo’lyozma holatida saqlanmoqda. Qolgan 39 ta asari va 4 ta taqrizi hozirgacha yetib kelmagan. Alloma hadis ilmi yo’nalishida *“Umdat al-qoriy sharh Sahih al-Buxariy”* (عمدة القارى شرح صحيح البخارى), *“Naxb al-afkor fi tanqih maban al-axbor”* (نخب الأفكار فى تنقيح مبانى الأخبار), *“Sharh Sunani Abu Dovud”* (شرح سنن أبى داود), *“al-Ilm al-hib sharh kalima at-tib”* (العلم الهيب شرح كلمة), *“Kashf al-Qina’ al-maraniy”* (كتاب مجموع من أحاديث متفرقة), *“Takmil al-atrof”* (كتشف القناع المرنى), *“Mag’oni al-axyar fi rijal ma’ani al-asar”* (تكميل الأطراف), (مغانى الأخييار فى رجال معانى الآثار) kabi 10 ga yaqin asarlar tasnif etgan. Ayniyning mazkur kitoblari hadis ilmining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Badruddin Ayniy Ibn Hajarning vafotidan uch yil keyin (855/1451) 91 yoshida vafot etadi. Tongda al-Azhar masjidida janoza namozi o’qilib, o’zi qurdirgan madrasada dafn etiladi¹⁵. Bu madrasaga keyinchalik *“Irshod as-soriy ala Sahih al-Buxoriy”* asari muallifi – Shahobuddin Ahmad Qastaloniy (vaf. 923/1517) ham dafn etilgan.

Dissertatsiya ikkinchi bobining *“Olim fiqhiy qarashlarining hanafiylik*

¹⁵ Solih Yusuf Ma’tuq. Badruddin Ayniy va asarihu fi ilm al-hadis. – ar-Riyoz: Dor al-bashair al-islomiya, 1983. – B. 81.; Muhammad ibn Abdurahmon Saxoviy. Vajayz al-kalom fiz zayl ala duval al-islom. / Tahqiqchi: Bashshar Avvad Ma’ruf, Ahmad Xotimiy. – Qohira: Muassasa ar-Risola, 1995. – B. 661.

asoslari takomilidagi roli” nomli ikkinchi paragrafida Badruddin Ayniy mamluklar davrida yashagan mashhur tarixchi olim, faqih, muhaddis sifatida ilmiy faoliyat olib borgani, shuningdek, ilmiy asarlari bilan hanafiy mazhabi rivojiga hissa qo‘shgani va ijtihod yo‘li bilan keltirgan fiqhiy qarashlari tahlil qilingan. U Burhoniddin Marg‘inoniyning (vaf. 593/1197) “Hidoya” asari va boshqa fiqhiy kitoblarni ustoz Alouddin Sayramiy kabi ulug‘ shayxlardan o‘rgangan. Shuningdek, olim tomonidan hanafiylik an‘analariga muvofiq tasnif etilgan o‘n beshdan ortiq fiqhiy asarlari Mamluklar davri hanafiylik asoslari takomilida muhim o‘rin tutgan.

Badruddin Ayniyning hanafiy mazhabi vakili bo‘lishi va shu mazhabning yetuk olimi sifatida yetishishiga ota-bobolari hanafiy olimlardan bo‘lgani, aksar diniy ilmlarni hanafiy ustozlardan o‘rgangani, movarounnahrlik allomalar asarlarini o‘qigani, mamluk sultonlarining hanafiy mazhabini qo‘llab quvvatlagani sabab bo‘lgan.

Badruddin Ayniy “Sharh al-Hidaya” va “Umdat al-qoriy” asarlarida to‘rt mazhab fiqhiy qarashlarini keltirgandan song hanafiy mazhabi fiqhiy ahkamlari asosida yakuniy yechimga qaratilgan aniq dalillarni keltirishi uning mujtahid darajasiga yetgan olimligidan va mukammal tarzda ta‘lif etgan fiqhiy asarlari hanafiy mazhabi rivojiga katta hissa qo‘shganidan dalolat beradi.

Ikkinchi bobning “*Badruddin Ayniy va zamondosh olimlar o‘rtasidagi ilmiy munosabatlarining hadis ilmi rivojiga ta’siri*” deb nomlangan uchinchi paragrafida Badruddin Ayniy va Ibn Hajar Asqaloniy, Taqiyiddin Maqriziy o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar va uning ilmiy muhitga ta’siri tahlil etilgan.

VIII/XIV–IX/XV asrlarda Mamluklar davrida olimlar o‘rtasida turli ilmiy bahslar va keskin tortishuvlar bo‘lib turgan, bu holat ba’zi hollarda o‘zaro bir-birlarini ayblash va kamsitishlarga olib kelgan¹⁶. Manbalarda Badruddin Ayniy va Ibn Hajar o‘rtasidagi ilmiy bahslarning yuzaga kelishiga quyidagi omillar sabab bo‘lgani keltirilgan¹⁷: *birinchidan*, har ikki olim bir shaharda bir davrda yashagani uchun asosan bir xil ustoz va shayxlardan tahsil olganlar; *ikkinchidan*, ularning ikkisi ham hadis, fiqh, til va tarix ilmida o‘z davrining zabardast ulamolari bo‘lganlar. Shuning uchun odamlar turli masalalarda ularga murojaat qilganlar; *uchinchidan*, Badruddin Ayniy hanafiy Ibn Hajar Asqaloniy esa shofei mazhabida bo‘lgan. Ma’lumki, hanafiy va shofeiylar o‘rtasida avvaldan shu kabi ilmiy bahslar bo‘lib kelgan. Bu ikki alloma o‘z mazhabini boshqasidan ustun qo‘yib, uni ommaga keng yoyishga intilib, turli tanqid va ta’nalardan himoya qilganlar. Bu esa, ular o‘rtasidagi raqobatning muhim sabablaridan bo‘lgan; *to‘rtinchidan*, ular

¹⁶ Muhammad ibn Abdurahmon Saxoviy. *az-Zav’ al-lomi’ li ahl al-qarn at-tasi’*. 12 jildlik. – Bayrut: Dor al-Jayl, 1992. – J. 10. – B. 129.

¹⁷ Toshkubruzoda. *Miftah as-sa’ada va misbah as-siyada fi mavzu’at al-ulum*. 3 jildli – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmia, 1993. – J. 1. – B. 266.; Jaloliddin Abdurahmon Suyutiy. *Husn al-muhazara fi tarix Misr va al-Qohira*. / Tahqiqchi: Muhammad Abulfazl Ibrohim. 2 jildlik. – Qohira: Dar ihya kutub al-arabiya. 1967. – J. 2. – B. 2272; Muhammad ibn Ahmad ibn Iyyos. *Kitob tarix Misr al-mashhur bi bado’i az-zuhur fi vaqo’i ad-duhur*. 10 jildlik. – Qohira: Kutub al-hay’at al-Misriya, 1982. – J. 2. – B. 35; Jadurrobb Amin Abdulmajid. *Bayn al-imamayn al-Ayniy va Ibn Hajar dirasat muqorana li manhajayhima fi sharh Sahih al-Buxariy*. – Qohira: Dor al-muhaddisin, 2007. – B.57; Abdurahmon Busayriy. *Mubtakiroat al-laliy vad-durar fil-muhakamat bayn al-Ayniy va Ibn Hajar*. / Tahqiqchi: Roid ibn Sabriy. – ar-Riyoz: Maktaba ar-rushd, 2005; Solih Yusuf Ma’tuq. *Badruddin Ayniy va asaruhu fi ilm al-hadis*. – Bayrut: Dor al-bashair al-ilmia, 1987. – B. 176.

qozilik lavozimida ham ketma-ket ishlaganlar va sultonlarning diqqat-e'tiborida bo'lishga harakat qilganlar; *beshinchidan*, har ikki olim "Sahih al-Buxoriy"ga ketma-ketlikda "Fath al-Boriy" va "Umdat al-qoriy" nomli sharhlarni yozishgan va shorihlar o'rtasida ilmiy bahslar kechgan. Natijada, Ibn Hajar Badruddin Ayniyga raddiya sifatida "Intiqozul e'tiroz" nomli kitobni tasnif etishiga sabab bo'lgan. Manbalarda Ayniyning Ibn Hajarga bildirgan e'tirozlari 2190 dan ortiq ekani ta'kidlangan¹⁸.

Dissertatsiyaning **"Umdat al-qoriy" hanafiy – mazhabiga oid muhim manba** deb nomlangan uchinchi bobida muallifning "Umdat al-qoriy" asarini tasnif etishda qo'llagan uslubi, asarning hanafiy mazhabida muhim manba ekani manbashunoslik jihatidan tahlil qilingan, diniy-ijtimoiy masalalarning hanafiy mazhabiga muvofiq sharhlangani yoritib berilgan.

Uchinchi bobning *"Umdat al-qoriy" asarining manbashunoslik tahlili* deb nomlangan birinchi paragrafida "Umdat al-qoriy" tarkibiy va manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Sharh 821/1418-yilda boshlanib, 847/1443-yili tugatilgan¹⁹. Asarda 7563 ta hadis sharhi 98 ta kitob 25 jildda bugunga qadar yetib kelgan.

Firabriyning "Sahih al-Buxoriy"ni muallifidan qilgan rivoyati Badruddin Ayniyga uchta yo'l orqali yetib kelgan. Ular: Abu Haysam Kashmihaniy (vaf. 389/999), Abu Muhammad Saraxsiy (vaf. 381/991) va Abu Ali ibn Shibavayh sanadlari orqali bog'lanadi. *Birinchi yo'l*, Badruddin Ayniy Kashmihaniyga ikki roviy – Karima Marvaziyya (vaf. 463/1071) va Abu Sahl Hafsiy (vaf. 463/1071) rivoyati orqali yetadi. Ayniy bu yo'l bilan Buxoriyga sakkiz sanad; *ikkinchi yo'l*, Abu Ali ibn Shibavayh orqali to'qqizta sanad; *uchinchi yo'l*, Abu Muhammad Saraxsiy orqali to'qqizta sanad bilan yetib boradi²⁰.

